



Muqaddas SAIDAKBAROVA

Qo'qon davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

E-mail: mukaddassaidakbarova@gmail.com

ID 0009-0005-7551-3657

“TASAVVUF HAQIDA TASAVVUR”: MUTOLAA, TADQIQOT, TAHLIL

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Tasavvuf haqida tasavvur” nomli ilmiy risolasi keng qamrovda tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida risolaning kompozitsion tuzilishi, unda yoritilgan mavzularning ketma-ketligi va ichki izchilligi, shuningdek, muallifning har bir mavzuga yondashuvi alohida o'rganildi. Risolada tasavvufga oid dolzarb masalalar, ularning tarixiy va nazariy asoslari, muammo mohiyati, uning paydo bo'lish sabablari hamda Shayx tomonidan taklif etilgan yechimlar batafsil tahlil qilinadi.

Maqolada tasavvuf genezisi, uning islomiy manbalardagi ildizlari, tarixiy taraqqiyot bosqichlari, tasavvuf maktablari hamda ularning tadrijiy takomil jarayoni ilmiy manbalar asosida ochib berilgan. Muallifning tasavvuf nazariyasini sodda, ravon va ommabop tilda bayon qilish uslubiyati risolaning asosiy jihatlaridan biri sifatida yoritiladi. Shuningdek, uning tasavvufga oid murakkab konseptlarni qisqa va lo'nda shaklda, keng kitobxonlar auditoriyasiga tushunarli tarzda taqdim etgani ilmiy-uslubiy jihatdan baholangan.

Bundan tashqari, risolaning zamonaviy islomshunoslikdagi o'rni, tasavvufilmining mazmun-mohiyatini tushuntirishdagi ilmiy-amaliy ahamiyati, yosh tadqiqotchilar, talabalar va keng jamoatchilik uchun manba sifatida qiymati aniqlab berilgan.

Kalit so'zlar: tasavvuf, tariqat, suvf, talqin, uslub, haq va botil, ehson, ruhiy tarbiya, shayx, sari sulk, aqida, panteizm, vahdat ul-vujud, mutasavvuf

“CONCEPTS OF TASAVVUF”: REVIEW, RESEARCH, AND ANALYSIS

Abstract. This article presents a comprehensive analysis of Shaykh Muhammad Sodik Muhammad Yusuf's scholarly treatise “Tasavvuf Haqida Tasavvur” (“An Understanding of Sufism”). The study examines the compositional structure of the work, the sequence and coherence of the topics discussed, as well as the author's methodological approach to each theme. The treatise explores significant issues related to Sufism, including their historical and theoretical foundations, the essence of the problems addressed, their causes, and the solutions proposed by the Shaykh, all of which are analyzed in detail.

The article also elaborates on the genesis of Sufism, its roots in Islamic sources, its historical stages of development, various Sufi schools, and their gradual evolution, drawing upon relevant scholarly literature. One of the notable features of the treatise is the author's ability to present Sufi theory in a simple, fluent, and accessible manner. His skill in explaining complex Sufi concepts concisely and clearly for a broad readership is highlighted and evaluated from a scientific and methodological perspective.

Furthermore, the article identifies the significance of the treatise within contemporary Islamic studies, emphasizing its scholarly and practical value in elucidating the essence of Sufi knowledge. The work is also assessed as an important resource for young researchers, students, and the general readership.

Keywords: Sufism, tariqa, Sufi, interpretation, style, truth and falsehood, ihsan, spiritual training, shaykh, sulūk path, creed, pantheism, vahdat al-wujud, mystic (mutasavvuf).

Hadisi sharifda “Alloh taolo har yuz yilning boshida sizlarning diningizni yangilab beradigan bir mujaddid (dinni yangilovchi) yuboradi”, deb aytilgan. Hadis ma’nosiga ko’ra, Haq taolo O’z dini, O’z ma’rifatining Noziri ekanki, ularni tadbig’i, targ’ibotchisi va tadqiqotchisini O’zi tanlaydi va ta’minlaydi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf ayni ilohiy qonuniyatning amaliy ifodasi o’laroq vazifador umr kechirdilar. Hazrat vazifador umrlari davomida katta salohiyat ila din va yangi davr masalalarini tadqiq etishda o’z maktablariga asos solib, Qur’on va Hadis asosida ilmiy dasturlar yaratdilar. Mazkur dasturlar yuzdan ortiq ilmiy-irfoniy adabiyot ko’rinishida kitobxonlarga taqdim etildi. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf o’zidan qoldirgan ilmiy merosning mavzular ko’lami keng bo’lib, fiqh, aqida, ehson ilmlari bilan bir qatorda ijtimoiy masalalarni ham o’z ichiga olgan.

Hazratning ehson-tasavvuf ta’limoti borasida ta’lif etgan asarlari dolzarb pallada dunyo yuzini ko’rdi. Tasavvuf, garchand islom ma’rifatining bir qismi bo’lsa-da, turlicha munosabatlar va hatto tanqidlarga sabab bo’lgan ilmdir. Bu kabi turlicha qarashlar sabablaridan biri - tasavvuf ilmi nazariyasidan bexabarlik bo’lsa, yana biri – tasavvufning amaliy ko’rinishi bo’lgan tariqatlardagi botil aqidalaridir. Ta’limot ilmidan byexabarlik, botil aqidalarga ergashish islom olamida turli ixtiloflarni yuzaga keltirib chiqardi, hatto XXI asr boshlarida ham bu kabi munosabatlar barham topmagan edi.

“Tasavvuf haqida tasavvur” nomli risola tasavvuf ilmi xususida chalkash qarashlarga ega kitobxonlar uchun, go’yoki dardiga shifo tilagan bemor uchun nasib bo’lgan malhamdek bo’ldi. Kaminaning ham bu boradagi mavhum tushunchalari ayni asar mutolaasidan so’ng tartiblandi, bir qancha savollar o’z yechimini topdi.

Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusufning “Tasavvuf haqida tasavvur” asari 230 sahifadan iborat bo’lib, u kichik hajmdagi muqaddima qism, 63 mavzudagi asosiy va xotima qism hamda 33 turdagi manbalar ro’yxatidan iborat.

Muqaddima qism Alloh taologa hamd, Payg’ambar alayhissalomga na’t bilan boshlanib, muallif ushbu kichik hajmli kirish qismida mazkur asarni ta’lif etilishi sababi – hozirgi kunda ilmsizlik natijasida tarqalgan tasavvuf haqidagi turli qarashlarga barham berish, deb ta’kidlaydi.

Asosiy qism ilmiy asarlarga xos an’anaviy talqindan o’zgacha ko’rinishdagi mavzular taqdimoti bilan boshlanadi. Odatda ma’lum mavzuga bag’ishlangan ilmiy asarlar boshlanishi ko’tarilgan mavzuning lug’aviy va istilohiy ta’rifidan boshlansa, mazkur asarning asosiy qismini muallif “Tariqatlar” bobi bilan boshlab, unda “tariqat” tushunchasini izohlaydi va ilk mashhur tariqatlardan:

1. Rifo’iya tariqati
2. Shoziliya tariqati
3. Qodiriya tariqati
4. Mavlaviya tariqati
5. Yassaviya tariqati
6. Naqshbandiya tariqati kabi tasavvufning amaliy maktablarini tanitishtiradi.

Hazratning asarga bu kabi yondoshuvi mazkur ta’limot tarixini bayon etishda xronik uzviylikni ta’minlaydi, muallif bu tartibotga asarning oxirigacha qat’iy amal qiladi.

Keyingi mavzular “Tasavvufda tanazzul”, “Yangilanish”, “Tasavvufga oid taassurotlar” deb nomlanib, muqaddima qism harakterida bitilgan. Mazkur boblarda Shayx Muhammad Sodik Muhammaad Yusuf tasavvuf ta’limotidagi tanazzul sabablarini ilmga da’vogarlarining o’ta ijtimoiylashuvi, qorin to’ydirish, shuhrat topishga intilishlar deb belgilaydi, ayrim botil tariqatlar tanqid ostiga olinib, fosh etiladi. “Ular ilmi raqoiq va haqoiqni o’z ishlari uchun, avomning qalbini

rom qilish uchun, zolimlarning molini olish uchun, miskinlarni xor qilish uchun va ochiq – oydin xaromlarga hamda zohir bid'atlarga erishish uchun narvon qilib olganlar. Ular ovqatlanish, kiyinish, gapirish va amal qilishda Allohning chegarasiga tajovuz qiladilar va “Alloh taolo buni men uchun yaratgan” deydi.U har chiqayotgan odamga: “To‘xta, chiqishingdan oldin men Allohning oldida sening uchun shafolat qilay”, der edi” [1:10-11].

“Yangilanish” va “Tasavvufga oid taassurotlar” bobida esa XX asr boshlariga kelib ilm ahli o‘rtasida tasavvufni isloh qilishga bo‘lgan harakatlarning jonlanishi, ulamolar tomonidan tasavvufga oid kitoblarning yozilishi, musulmon olami ilmiy kengashlarida ayni mavzuga alohida e’tibor qaratila boshlaganligi haqida ma’lumotlar berilgan. Bizning diyorlarda sovet mafkurasi davrigacha va shu davrda “fanatizm”ga aylangan tasavvufning o‘ta og‘ir ahvolda ekanligi, mustaqillikning dastlabki yillarida shariat ahllarining ichida ham tasavvuf masalasi achinarli holda bo‘lganligi xususida to‘xtalib o‘tilgan. Muallifning o‘sha davrdagi tasavvuf haqidagi tasavvurlari shaxsiy hayotiy voqealar bilan bayon etilgan. Ushbu bobning so‘ngida bob xulosasi sifatida 16 turdagi savollar berilgan bo‘lib, savollar muallifning XX asr so‘ngi yillarida islom olamida tasavvufni anglash borasida nimalarga e’tibor qaratish lozim, ta’limotning qaysi qirralari ilmiy jihatdan to‘liq ochiqqlanishini kutyapti, har qanday “shayx” – bu tasavvufmi, qabilidagi dolzarb mavzularni qamrab olgan.

“Tasavvufning ma’nosi” deb nomlangan bobdan risolaga qo‘yilgan muammo tahlilining nazariy asoslari bayon etila boshlagan. “Tasavvufning ma’nosi”, “Tasavvufning ta’rifi”, “Tasavvufning manbalari” nomli boblarda “tasavvuf” so‘zining lug‘aviy va istilohiy ma’nolari mukammal tarzda ochib berilgan. “Tasavvuf” so‘zi arabcha “suvf” – “jun” so‘zidan olingan bo‘lib, uning ta’riflari sanoqsiz ekanligi, har bir ta’rif aytuvchi ahli suluk o‘zi tutgan maqomdan turib ta’rif berganligi haqida ilmiy ma’lumotlar berilgan. “Qavoidut-tasavvuf” kitobida zikr qilinishicha, mashhur tasavvuf shayxi Ahmad Zarruq rahmatullohi alayhi ikki mingga yaqin ta’rifni keltirgan..... Tasavvuf.....u katta boqqa o‘xshaydi. Har bir solik bir daraxtning ostida turib, o‘sha daraxtni vasf qilgandir. Bu zinhor, bog‘da bundan boshqa daraxt yo‘q, degani emas. Ta’riflar qanchalik ixtilofli bo‘lmasin, ularning barchasi poklanish va taqvo martabasiga yetib boradi” [1:34].

Hazrat keyingi bobda ulamolarning “Tasavvuf boshqa barcha islomiy ilmlar qatori Qur’on va Sunnatdan olingandir” degan e’tirofini keltirib, bu fikrni Qur’oni Karimning “Jumu’a”, “Baqara”, “A’laa”, “Shams” suralaridan keltirilgan oyatlar va bir necha hadisi shariflar bilan dalillaydilar.

Ushbu risola bilan tanishgunimga qadar kamina ham (va ko‘pgina ilm ahllari ham) “vahdat ul-vujud” va “panteizm” g‘oyalarini bir tushuncha deb qarar edim. Yunon faylasuflarining panteistik qarashlariga ko‘ra butun borliq bir Xudo, borliqdagi har bir ob’yekt butun bir Xudoning qism, parchalaridir deb tushuntiriladi. **“Panteizm** (yunoncha, pan – barcha, hamma va theos – xudo) – xudo bilan tabiat bir narsa, ular bir butunni tashkil qiladi deb hisoblovchi diniy va falsafiy ta’limot. Panteizm atamasini fanga J.Toland kiritgan (1705). Bu tushuncha Sharqda “vujudiyun” nomi bilan ataladi. Panteistik tamoyillar o‘rta asrlardagi yereslik mistikasida ko‘zga tashlangan. Panteizm Uyg‘onish davri natur falsafasi va boshqa Spinoza („xudo“ va „tabiat“ tushunchalarini bir narsa deb bilgan) hamda I.G.Gerder, I.V.Gyote va nemis klassik falsafasiga xos” [5; 1]. Ayrim talqinlarda Sharq “vahdat ul-vujud” nazariyasini ayni panteistik qarashlar bilan bir, deya iddao qilingan. “Tasavvuf haqida tasavvur” risolasida Hazrat Muhammad Sodik Muhammad Yusuf tasavvufni sunniy tasavvuf va falsafiy tasavvufga bo‘lib, har ikkisini ilmiy asoslar bilan dalillab, “vahdat ul - vujud”ni falsafiy tasavvuf deb ta’riflab, uning sunniy tasavvufdan farqi Alloh va olamni anglashda o‘ta chuqur, nozik qirradan falsafiy mushohada etganidadir, deya bayon qiladi. Panteizm va vahdat ul-vujud nazariyasini o‘zaro qiyoslab, mutloq ikki alohida tushuncha ekanligini sharq muutasavvuf olimlari fikrlari bilan isbotlab beradi: “Alloh taolodan boshqa barcha narsalar shu’un va ta’yinotlar olamidir. Barcha shu’un

(holat) va ta'yinot (jism)lar U Zotning ko'rinishlaridir. U Zot ularda zohir va aralashib yuruvchi bo'lgandir. Bu aralashib yurish **hulul** (singish) va **ittihod** (birikib ketish) nazariyasi sohiblari aytgani kabi emasdir. Balki bu aralashib yurish bir sonining boshqa sonlar ichida yurgani kabidir. Hamma sonlar birliklardan iboratdir. Ammo olamda faqatgina bir muayyan narsa yoki bittagina zot zohir bo'ladi, xalos. Ana o'sha Zot Allohning muqaddas zoti shaklida zohir bo'lgandir. Allohning zoti esa ko'p adadlarda zohir bo'ladi. Bas, Alloh avval va oxir, zohir va botin, sheriklar va tengdoshlardan ustundir" [1:230]. Demak, vahdat ul-vujud nazariyasi panteistik qarashdan tubdan farq qilib, uningcha butun borliq U emas, balki Alloh taoloning zoti va sifatleri borliqda jilolangan: Qudrati falaklari tog'larda, Rahmonligi har bir mavjudlikda, Qahri shiddatu sinovlarda va h.kz. kabi. Vahdat ul-vujudchilarning yagona vujud faqat Ungagina xos, degan da'volarining mantig'i shuki, ibtido va intiho maxluqlar olami uchun xos sifat bo'lib, sababsiz beibtido va sababsiz beintiho bo'lgan yagona vujud – Alloh taolodir. Shunday ekan, Allohdan tashqaridagi barcha mahluqlar vujudi vaqtinchalik vujud, yagona abadiy Zot Udir. Hazrat bu boradagi fikrlarini rivojlantirib, akadem ulamolarga xos tarzda (nozik aqidaviy masalalarni e'lon qilishda xoslarni o'zigagina murojaat qilmay, balki ommani ham nazardan chetda qoldirmay, ularni ilmni hazm qilish darajasini unutmagan holda) vahdat ul-vujud nazariyasini qoralamay, shu bilan birga to'liq tarafdorlik pozitsiyasini ham tutmasdan (tarafdor emasliklarini izhor qilishda – vahdat ul - vujudning o'ta nozik, ramzlar va xoslargagina tushunarli bo'lgan ilmiy istilohlar bilan so'zlashi, bu esa o'z o'rnida suratlar bilan mashg'ul omma uchun muhohasali, ixtilofli ekanligi, shu kabi elitar ifodalar adashish, chalkashlikka sabab bo'lishidadir, degan qarashlarni nazarda tutganlar, vallohu a'lam) oqilona yechim beradi: "Ularning ishini Alloh taoloning O'ziga havola qilamiz, ular haqida bir yoqlama hukm chiqarmaymiz", deyдилar. Biz ham mana shu toifaga qo'shilamiz" [1:242].

Risolaning keyingi boblarida tasavvufning vazifalari umumiy qilib sakkiz ko'rinishda tasniflab bayon qilingan:

1. Tasavvuf – botiniy fiqh.
2. Tasavvuf aqoid ilmi bilan bog'liqdir.
3. Tasavvuf Qur'on va Sunnat haqiqatini anglab, qat'iy unga amal qilishga buyuradi.
4. Tasavvuf "qalb", "ruh", "aql", "nafs" kabi ma'nolarni tushuntiradi va musulmon banda bularning har biriga qanday munosabatda bo'lishini bayon qiladi, shu bayonni amaliyotga tatbiq qilishni yo'lga qo'yadi.
5. Tasavvuf axloqni sayqallashni yo'lga qo'yadi.
6. Tasavvuf nafsni poklashni yo'lga qo'yadi.
7. Tasavvuf tavba, istig'for, duo, zuhd, taqvo, vara' va shunga o'xshash ma'nolar haqiqatini anglab yetishga yordam beradi, ularni hayotga tatbiq qilish yo'llarini o'rgatadi.
8. Tasavvuf mo'min-musulmonlarga nafl ibodatlarini yo'lga qo'yish bo'yicha dars beradi.

Muallif tomonidan bayon qilingan tasavvufning vazifalari bir qarashda muxtasar bo'lsa-da, ta'limotning asosiy mohiyatini qamrab olgan. Bu kabi muxtasarlik va optimal yondashuv Shayx Muhammaad Sodiq Muhammad Yusufning o'ziga xos ilmiy uslubi bo'lib, ayni shu soddalik va muxtasarlik o'sha davr, o'sha jarayon uchun mos va xos edi.

"Tariqat va shariat", "Tariqat silsilasi" boblarida tasavvufning amaliy ko'rinishi bo'lgan tariqat masalasiga alohida to'xtalib, tariqat va shariat mavzusiga Ahmad Muhammad ibn Ajiba Hasaniyning "Iyqozul himam fiy sharhil hikam" asaridan olingan iqtibos bilan oydinlik kiritadi: "Fiqhsiz tasavvuf bo'lmas. Chunki Alloh taoloning zohiriy ahkomlari faqatgina fiqh orqali bilinadi. Shuningdek, tasavvufsiz fiqh ham bo'lmas. Chunki sodiq tavajjuhsiz amal bo'lmas. Iymonsiz ikkisi ham bo'lmas. Chunki usiz ularning ikkisi ham to'g'ri bo'lmas. Bas, ikkisining hukmi bir-biriga lozim bo'lgani uchun, ikkisini ham tutmoq lozim" [1:79].

Har bir tariqatning Rosullulloh alayhissalomga borib taqaladigan silsilasi bo'lishi lozim. Silsila tariqatlarning botil aqidalar bilan chalg'ib ketmasligi, faqat payg'ambar alayhissalomning sunnatlaridan tashqariga chiqib ketmasligini kafolatlaydi. Asarning silsilaga doir bobida yurtimizda mashhur bo'lgan naqshbandiya tariqatining Rosullulloh alayhissalomga borib taqaluvchi silsilasining o'ttizga yaqin vakillarini nomma-nom sanab, ular haqida qisqa tarixiy-faktik ma'lumot berilgan:

1	Hazrati Muhammad alayhissalom
2	Abu Bakr Siddiq roziyallohu anhu
3	Salmon Forsiy roziyallohu anhu
4	Qosim ibn Muhammad roziyallohu anhu
5	Ja'fari Sodiq roziyallohu anhu
6	Boyazid Bistomiy quddisa sirruhu
7	Abul Hasan Haravoniy quddisa sirruhu
8	Abu Ali Farmadiy quddisa sirruhu
9	Yusuf Hamadoniy quddisa sirruhu
10	Xoja Abdulkoliq G'ijduvoni quddisa sirruhu
11	Xoja Orif Revgariy quddisa sirruhu
12	Xoja Mahmud Fag'naviy quddisa sirruhu
13	Xoja Ali Romitoni quddisa sirruhu
14	Muhammad Bobo Samosiy quddisa sirruhu
15	Sayyid Amir Kulol quddisa sirruhu
16	Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband quddisa sirruhu
17	Xoja Alouddin Attor quddisa sirruhu
18	Xoja Ya'qub Charxiy quddisa sirruhu
19	Xoja Ubaydulloh Ahror quddisa sirruhu
20	Xoja Muhammad Zohid quddisa sirruhu
21	Darvesh Muhammad quddisa sirruhu
22	Xoja Muhammad Imkanagiy quddisa sirruhu
23	Xoja Muhammad Boqiy quddisa sirruhu
24	Imomi Rabboniy Ahmad Foruq Sarhandiy quddisa sirruhu
25	Al-Urvatul vusqo Muhammad Ma'sum quddisa sirruhu
26	Shayx Sayfuddin quddisa sirruhu
27	Sayyid Nurmuhammad Badavuniy quddisa sirruhu
28	Habibulloh Mazhar Joni Janon Shamsuddin quddisa sirruhu
29	Shoh Ali Abdulloh Dehlaviy quddisa sirruhu
30	Mavlono Xolid Ziyouddin Bag'dodiy quddisa sirruhu

“Silsilaga xulosa” bobida yuqorida nomlari zikr etilgan shayxlarning nasab va hasablari haqidagi ma'lumotlarga ko'ra, tariqat shayxi bo'lish uchun ma'lum nasabga mansub bo'lishi shart emasligi, irq va millat tanlanmasligi, shayxlar avvalo shariat ilmlarini mukammal egallagan bo'lishligi, turli ijtimoiy tabaqa vakili bo'lishi mumkinligi (moddiy mulkdor yoki kambag'al), ixtiyoriy ravishda moddiy mulkdan foydalanishdagi cheklov yoki aksincha keng bo'lishligi, shayxlik darajasiga o'z riyozati bilan erishishlari bayon etilgan. Qo'shimcha ma'lumot sifatida. naqshbandiya tariqatida yuqorida zikr etilgan silsiladan tashqari yana ikkita silsila mavjudligi haqida eslatma

berilgan. Tarixda naqshbandiya tariqati bir necha nomlar bilan atalganligi haqidagi ma'lumot ham o'quvchi uchun qimmatli ilmiy xabardir.

Shundan keyingi boblarda tasavvuf ta'limotining faol istilohlari birma-bir alohida bob ko'rinishida izoh topgan, ularning lug'aviy va istilohiy ma'nolari to'liq ochib berilgan. Risolada sharhlangan istilohlar: shayx, bay'at, murid, tariqat yo'li va undagi sayri suluk, tariqat virdlari, xatmi xojagon, robita, valiy, karomat, avliyolar karomati, karomat turlari, tush, kashf, ilhom, shatohat, janda kiyish, samo', tasavvufda odob va axloq, madad so'rash. An'anaviy lug'atshunoslik ilmi tartibidan farqli o'laroq, har bir istiloh sharhi Qur'on oyatlari, hadisi sharif namunalari, mashhur avliyolar hayotidan olingan misollar, mutasavvuf olimlar asarlaridan olingan iqtiboslar va muallif ilmiy izlanishlariga asoslangan munosabatlar bilan boyitilgan. Bunday yondashuv ilm talibida tasavvuf haqida tasavurning yanada mukammal shakllanishini, mohiyatan aniqlikni ta'minlaydi. Masalan:

1. "... **murshidi valiy** odamlarni hidoyatiga sabab bo'lishi mumkin" [1:153].

2. "Or bo'lsin ilmlarni rozi qilmaganga, Mavjudu **g'ayri mavjudni** bilmaganga" [1:67].

3. "Keyinchalik kishilar o'zlari uchun taqvoda o'rnak bo'lgan shayxlarga taqvo ishlarida sodiq bo'lish uchun **bay'at** qilishga o'tdilar. Shu tarzda bay'at ikkiga bo'lingan: xalifaga – siyosiy ma'noda, shayxga – taqvodorlik ma'nosida bay'at qilishga o'tilgan" [1:176].

4. "**Uzlat** deganda ko'pchilikdan ajrab, yolg'iz qolish tushuniladi. Aslida musulmon kishi ko'pchilikdan ajramasdan yurishi lozim. Rosululloh alayhissalom imom Ahmad Hanbal rivoyat qilgan hadisi sharifda: "Odamlarga aralashib, ularning ozorlariga sabr qiladigan mo'min odamlarga aralashmaydigan va ularning ozorlariga sabr qilmaydigan mo'mindan yaxshidir", deganlar. ... Kimgadir ma'lum bir vaqt va sharoitda uzlat zarur bo'ladi. Boshqa holda esa zarur bo'lmasligi mumkin" [1:181-184].

5. "Tariqatda tajribali va kishilar orasida obro'si bor kishi **xatmni** boshqaradi. ... Zokirlar fikrlarini bir joyga jamlashlari uchun o'zlarini yumib olishlari maslahat beriladi" [1:199].

6. "**Robita** haqida bahs yuritgan tasavvuf kitoblarining barchasida robitali shayx tasavvufdagi eng zarur ishlardan biri sifatida zikr qilinadi. Ba'zi kitoblarda nafaqat tirik shayxlarga, balki vafot etib ketgan shayxlarga ham robita qilish haqida so'z boradi" [1:203].

7. "Ogoh bo'lingkim, Allohning **valiylariga** xavf yo'qdir va ular xafa bo'lmaslar", degan (Yunus, 62 –oyat)" [1:34].

Bu kabi tasavvuf istilohlariga doir daliliy iqtiboslarni yuzlab keltirishimiz mumkin.

Mazkur risolaning e'tiborli o'rinlaridan yana biri – valiylik hamda valiylarga xos karomatlar masalasiga chuqur ilmiy yondoshilganligi. Shayx Hazratlari risolada valiy, avliyolar kimlar, degan savolni ilmiy ochiqlab, ular Allohning xos bandalari, do'stlari, deya tanishtirib, fikrlarini Qur'on oyatlari va muborak asarlardan olingan iqtiboslar bilan dalillaydilar.

Insoniyat tarixidan ma'lumki, insonga xos bo'lgan zaif sifatlardan biri (balki bu biz o'ylagandek zaif sifat emasdir) – har bir inson o'zini jamiyatda o'zgacha fenomen sifatida tan olinishini istaydi, o'zining hammadan ajralib turishini, iqtidori ortiqroq ekanligi, go'zalroq, kuchliroq, boyroq, ilmliroq, taqvodorroqligini isbotlash uchun kimdir onglilarcha, kimdir ongsizlarcha urinadi (buni psixologiyada "unikallik illyuzasi" yoki "Personal Fable" deb nomlanadi). Shu nuqtai nazardan "Tasavvuf haqida tasavvur" risolasida valiylik va karomat masalasida so'z yuritilganda asl valiy va asl karomatning boshqalari bilan qiyosi ham ko'rsatib o'tilgan: "... karomat – odatdan tashqari sodir bo'lgan ish. ... Agar odatdan tashqari ish payg'ambardan boshqa ahli taqvo va solih odamdan sodir bo'lsa, bu karomat bo'ladi. Agar o'sha odatdan tashqari ish to'g'ri yo'lda bo'lmagan odamdan sodir bo'lsa, bu sehr yoki sinov bo'ladi" [1:211-212]. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, insonning jamiyatda o'zini tasdiqlatishga bo'lgan kuchli ehtiyoji ba'zan o'zini favquloddagi iqtidor egasi – "sohibi karomat" qilib ko'rsatishigacha olib boradi. Bu esa o'z navbatida sof irfoniy tasavvuf ta'limoti nazariyasidan bexabarlar uchun tariqat, tasavvuf, avliyo, karomat kabi nozik tushunchalarga nisbatan haqsiz nafrat, salbiy munosabatda bo'lishiga sabab bo'ladi. Bunday hodisalar tarixda ko'plab sodir bo'lgan va

hozir ham davom etmoqda. Ayni botil qarashlar bilan haq tasavvufni farqlashda zikr etilayotgan ushbu risolaning o'zni o'ta ahamiyatlidir. Risoladan o'qiymiz: "Shuning uchun Alloh taolo Nabiy alayhissalomni ushbu uch narsani (ilm, qudrat, behojatlik) da'vo qilishdan voz kechishga amr qilgandir: "Sen: "Sizlarga: "Huzurimda Allohning xazinalari bor", ham demassan, g'aybni ham bilmasman. Va yana sizlarga : "Men farishtaman", deb ham aytmassan. Men faqat o'zimga vahiy qilingan narsaga ergashaman, xalos", deb ayt" (An'om surasi, 30 – oyat)" [1:212-213]. Payg'ambar alayhissalomga buyurilgan Alloh taoloning ushbu amridan ko'rinib turibdiki, avvalo, Haq taolo hatto payg'ambariga ham rizqni mezonlab bergan ekan, oddiy bandada sodir bo'layotgan, oddiy banda da'vo qilayotgan karomatlarni, iddaolarni qabul qilishda faqat va faqat qat'iy Qur'on va Hadis ma'rifati asoslariga tayanish lozimligini muallif bir necha bor ta'kidlab o'tgan. Valiy, karomat boblari qatorida tush, kashf, ilhom kabi tasavvufiy mavzularni alohida bayon etilishi muallifning o'ta o'tkir zehn va ilmiy nozik ta'b sohibi ekanligining dalolati bo'lib, ko'tarilgan mavzu bayoni va anglanishida o'quvchini mukammal va butun tasavvurga olib boradi, bu masalada deyarli boshqa savollarga o'rin qolmaydi, har qanday tushunmovchilikka barham beriladi.

Risolada yana bir o'ta muhim mavzu qalamga olinib, unga izoh berilganki, Hazratning ayni ilmiy qarashlari bugungi kundagi nafaqat diniy, balki adabiy sohada ham dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Biz nazarda tutgan mavzu - "Shatohat" bobi. Ahli shariat va ahli tasavvuf o'rtasidagi ko'p yillik kelishmovchiliklarning sabablaridan biri shatohat masalasidir. Arabchada "harakat", "to'lib toshish" ma'nosini anglatuvchi bu istiloh, tasavvufda so'fiyning hol paytida o'zini yo'qotib qo'yganda aytadigan so'zlarini anglatadi. "Shatohat qo'pol hidli hamda yaxshilik da'vosiga dalolat qiluvchi so'z bo'lib, ahli ma'rifatdan iztiror va iztirob paytida sodir bo'ladi. U muhaqqiqlarning toyilishidir. U orifning aytgan haq da'vosi bo'lib, ilohiy iznsiz aytilgan gapdir" [1:245]. Muallif shatohatni ikki turga ajratib, har biriga alohida tavsif beradi. Biri – qisqa muddatli shatohat-ki, hushyor bo'lib, o'ziga kelganda aytganiga tavba qiladi, ikkinchisi - hushyor holda ham aytganidan qaytmaydi. Ulamolar tomonidan birinchisi ma'zur tutilib, ikkinchisi esa nomaqbul topilgan.


"O'z she'rlari va gaplarida "qadah", "may", "laylo" kabi istilohlarni ishlatgan so'fiylar ham ko'p bo'lgan. Bunday istilohlarni ishlatgan so'fiylarning o'zlari "ramz", "ishora" va "lag'z" deydilar... Bunday holatlar oddiy hayotimizda ham, turli san'atlarimiz namunalarida ham (xususan, abstraksionizmga asoslangan asarlar va ularning mualliflarida), ishqiy-ilohiy she'riyatimizda ham, bugungi tasavvufchilarimiz orasida ham uchrab turadi" [1:247-250]. Mumtoz adabiy asarlarni o'rganishda, tahlil qilishda tasavvuf ta'limoti, tasavvuf istilohlarini mukammal o'rganish bilan birga shatohat hodisasiga islom aqidasi nuqtai nazaridan munosabat masalalarini ham bilishni taqozo etadi.

Navbatdagi "Janda kiyish" bobida so'fiylarning o'ziga xos xirqa kiyish, janda kiyish retuali xususida so'z borib, ushbu marosimning kelib chiqish sabablari haqida ahli taavvuf va ahli shariatning qarashlari bayon etilgan. Ushbu ikki tomonlar qarashlari tahlilga tortilib, ilmiy xulosa berilgan.

"Odob va axloq" bobida esa muallif islom dini makorum ul-axloq dini ekanligi, tasavvufda axloq va odobning o'zni o'ta muhimligi, Alloh taologa qurbat qilishni maqsad qilgan so'fiy odobu axloqsiz sayri sulukda hech bir amal o'z takmilini topmasligi, aksincha "beodoblik sulukning barchasini buzishi" batafsil bayon qilingan. "Kim nimani yutsa, faqatgina odob bilan yutadi. Kim nima bilan qulasa, faqatgina beodoblik bilan qulaydi" [1:257].

"Tariqatning botini va zohiri bordir,
Uning zohiridan botinlari bilinadir.
Uning zohiri odoblar va axloqlardir,
Uning botini hollarning manozilidir" [1:259].

"Tasavvuf haqida tasavvur" risolasining qiziqarli mavzularidan – bu "Samo'" bobi. Internet tarmog'iga kirib "tasavvuf" yoki "sufizm" deb so'rov bersangiz, aylanib raqs tushayotgan erkak, erkaklar jamosi surati kelib chiqadi.



G‘ayri musulmon olami uchun bu kabi suratlar tasavvufning ramzi, tashrif qog‘ozi vazifasini o‘taydi. Kamina ham baholi qudrat tasavvuf ta‘limotini o‘rganar ekanman, meni “Samo‘ sof tasavvufiy hodisami?” degan savol doimo o‘ylantirgan. Ayrim nazariy adabiyotlarda Mavlaviya tariqatining muhim retuallaridan biri, deyilsa, yana boshqa ilmiy asarlar bu kabi samo‘ raqslari Mavlaviya tariqatiga keyinchalik (Rumi vafotidan keyin) qo‘shib qo‘yilgan, deydi. Turlicha bu kabi qarashlar bu mavzuga bo‘lgan qiziqishimizni yanada olovlantirgan.

Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rahimahulloh ustozimiz “Samo‘” bobida biz va bizga o‘xshash javobini izlab yurgan muhiblar uchun dardning kutilgan davosidek ilmiy ma‘lumotlarni bayon qilganlar. “Samo‘” (eshitish) – musiqa, she‘r, qo‘shiq va boshqa narsalarni eshitib, uning ohangi bilan hamohang tarzda tanani harakatga keltirish, bir so‘z bilan aytganda raqs tushishdir. Risolada yozilishicha, samo‘ raqslarini tasavvuf ta‘limotiga kirib kelishi, hijriy VII-asr (milodiy XIII - XIV-asr)ga to‘g‘ri kelib, Iroq va shaarqiy arablarga hind mutasavviflarining kirib kelishi bilan harakterlanadi. “Ular hakimlardan ko‘ra ko‘proq firibgarlarga o‘xshar edilar. O‘shalar so‘fiylarning halqalariga turli sun‘iy banj (mast qiluvchi vosita. M.S.) larni olib kirdilar va ularni “banji asror” deb atadilar. Yana “Falakning aylanishiga o‘xshaydi” deb, aylanib tushiladigan rasqni ham kiritdilar. Bu raqs Mavlaviy tariqatida hozirgacha ijro etilib kelmoqda”. [1.264] Hazrat bob davomida samo‘ raqslarini joiz deganlarning uchta dalillarini keltirib o‘tadilar.

1-dalil	Rosululloh s.a.v. Ali ibn Abu Tolib r.a.ga: “Men sendanman, sen mendansan”, deganlarida, u kishining xursandchilikdan bir oyoqlarini ko‘tarib, ikkinchisini tushirib sakraganlarini dalil keltiradilar.
2-dalil	Nabiy s.a.v. Zayd r.a.ga “Sen birodarimiz va mavlomizsan”, deganlarida u kishining xursandchilikdan bir oyoqlarini ko‘tarib, ikkinchisini tushirib sakraganlari.
3-dalil	Oisha onamiz r.a.ning habashlarning raqsini tomosho qilganlari

Ammo raqsni joiz deganlarning bu dalillarini ulamolar Ali va Zayd roziyallohu anhularning bir oyog'ini ko'tarib, ikkinchisini tushirib sakrashi raqs emas, balki bu xursandchilikni ifoda etuvchi harakatdan boshqasi emas, deganlar. Bundan tashqari muallif sahobiylarning hayotidagi bu kabi holat, she'r eshitib hordiq chiqarish holatlari hayotlarining juda kam qismini tashkil etganligi ta'kidlab, ularning samo'lari – Qur'on tinglash edi, deya xulosa beradi. Bunga qo'shimcha tarzda, samo' ulamolar tomonidan inkor etilmagan hodisa bo'lib, faqat u sharia't chegarasida sodir bo'lmog'i lozim, deydi.

Samo' kabi mubohasali yana bir mavzu – "Madad so'rash" bobida bayon etilgan. Ushbu bobda madad so'rashdagi botil munosabatlar – pirdan, shayxdan madad so'rash tanqid ostiga olinadi, muallif bu kabi qarashlarni tasavvufga qorishib ketishi sababalari deya - shiy'a mazhabidan ta'sirlanish va ba'zi oyat hamda hadislarni noto'g'ri ta'vil etish, deb tashxis qo'yadi.

Risolaning "O'zaro anglashuv zarur" va "Biz nima qilishimiz lozim?" nomli boblari xulosa oldi boblari sifatidagi talqinlardir. Ularda Hazrat tasavvuf xususidagi ulamolarning odil munosabatlarini birma-bir keltirib, haq va botil tasavvufni ajratish, tasavvuf haqiqatini anglash vaqti keldi, deya chaqiriq ko'rinishida izoh beradilar. Yurtimizning aziz ulamo farzandlari bo'lgan imom Buxoriy, imom Termiziy, imom Nasoiy, imom Dorimiy Samarqandiy, imom Zamaxshariy, imom Abulbarokat Nasafiy, imom Moturidiy, imom Abu Lays Samarqandiy, aqida ulamolari – Abu Mansur Moturidiy, Sa'diddin Taftazoniy, Umar Nasafiy, faqih ulamolar - Burhoniddin Marg'iloniy, imom Kosoniy, Alouddin Samarqandiy, buyuk mutasavvufklar – Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, xoja Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, xoja Ahror Valiy, So'fiy Allohyor rahmatullohi alayhimlarning avlodlari ekanligimizni anglab, yod etib, ular bosgan izlarni bosishga, ular yurgan yo'llardan yurishga da'vat etadi.

"Barcha islomiy ilmlar bilan birga, tasavvuf ham xalqning axloqiy tarbiyasi, oliy qadriyatlar, vatanparvarlik, bag'rikenglik va boshqa kerakli omillarni shakllantirish va tutib turishda katta xizmatlar qilgan. Bu xizmatlarning tafsiloti haqida jild-jild kitoblar yozilgan va yoziladi, inshaAlloh", [1:280].

Risolaning so'ngi bobiga kelib muallif tasavvuf haqidagi umumiy xulosalari bayon etib, uning yuksak ta'limot ekanligini tasdiqlab, quyidagi xotimaga xos fikrlarni bayon etadi. Tasavvufning ulkan xizmatlaridan biri – O'rta Sharq musulmon olamini bosib, qirg'inbarot genosidni amalga oshirgan mo'g'ullarni na buddizm, na masihiylik o'z diniga kirita olmadi. Ammo, Islom buni uddaladi, ular (hijriy 7 –asr) birin-ketin islom diniga kira boshladilar. Bu tarixiy ishning sababchilari Alloh taoloning izni bilan musulmon ulamolari, xususan mutasavvufklar edi (risolaning so'ngi "Mo'g'illarni bo'ysundirish" bobidan). Shayx Jamoluddin va uning o'g'li shayx Rashiduddin sulton To'g'liq Temurxonni islom dinini qabul qilishiga sabab bo'ldilar, natijada katta imperiya sohibining islomga kirishi ko'plab mamlakatlarning musulmonlikni qabul qilib, bir bayroq ostida jamlanishiga sabab bo'ldi. Bu tasavvufning ulkan xizmatlaridan birinasi edi.

Hazrat Shayx Muhammad Yusuf Muhammad Sodiq "Tasavvuf haqida tasavvur" risolasini tamomlar ekan, xulosa o'rnida irfoniy ko'rsatma beradi: "Zero, tasavvufga oid barcha narsalarni azizlarimizdan eshitganimiz yoki ko'rganimiz tarzida emas, azizlarimiz kabi Qur'on va Sunnatni asos qilib olib, ilmiy ravishda o'rganib, yo'lga qo'yishimiz lozim, Bularning barchasi hammamizning ittifoq bo'lib, harakat qilishimiz orqali yuzaga chiqishi mumkin. Ana o'shanda Islomning ruhiy tarbiya qismi bo'lgan tasavvuf ixtilofga emas, ittifoqqa sabab bo'ladi. Ana o'shanda Islomning ruhiy tarbiya qismi bo'lgan tasavvuf jaholatga emas, ma'rifatga sabab bo'ladi" [1.290].

Maqola ibtidosini muborak Hadisi sharifdan boshlangan edi. Unda aytilgan har yuz yilning Alloh tuhfa etgan mujaddidi sifatida musulmon olami, xossatan o'zbek millatiga in'om etilgan mashhur ulamo, islom dinining jonkuyar targ'ibotchisi, mutasavvuf olim, millat mudarrisi Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rahimahullohning bosib o'tgan yo'li, ta'lif etgan ilmiy-irfoniy

asarlari butunjahon islom olamining nodir durdonalaridir. O‘zidan qoldirgan ulkan ilmiy meros musulmon ahli uchun dastur ul-amal vazifasini o‘tash bilan birga, Islom dini ma‘rifatini o‘rganish va o‘rgatishda, bevosita ularni hayotga tatbiq etishda, Islom ma‘rifatida yashiringan sirlarni yangi zamon ko‘lamida kashf etishda, turli ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda, ijtimoiy, siyosiy, ma‘rifiy sohalarda tadrijiy takomilga erishishda muhim manba vazifasini o‘taydi. Hazratning o‘ziga xos sodda, ravon, ilmiy dalillarga asoslangan talqin uslubi, shaxsiyatidagi mazmun va shakl mutanosibligi xalq, millat, insoniyat tamadduniga sezilarli ta‘sir o‘tkazdi va bu jarayon davom etmoqda. Ushbu jarayon Hazrat yaratgan asarlar bilan yaqindan tanishib, ularni tadqiq etish orqali davomiylik kasb etadi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. -T.: Hilol-Nashr. 2016
2. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol. 6 jildlik. -T.: "Hilol-Nashr". 2011
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot. 33-jildlik. -T.: "Hilol-Nashr". 2011
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Naqshbandiya. -T.: "Hilol-Nashr". 2023
5. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. -T.: Istiqlol. 1999.
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Panteizm>

